

KATTA YOSHDAGILAR TA'LIMINIŃ AĖAMIYATI

Fayzullayeva Ulbo'sin

*GulDU Pedagogika va psixologiya
yo'nalishi 2 kurs magistri*

XXI asrning tinchlikni saqlash, demokratiyani kengaytirish, inson huquqlariga rioya qilish, xilma-xillikni hurmat qilish, nizo-kelishmovchiliklarni hal qilish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, inson resurslarini takomillashtirish va atrof-muhitni muhofazalash kabi global muammolarini hal qilishda asosiy vositalar hisoblanadi. 2009 yilda Braziliyada (Belen shahrida) o'tkazilgan CONFINTEA VI jamoatchilik tomonidan katta yoshdagilar ta'limini va norasmiy ta'limini butun umr mobaynida ta'lim olishining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishini oshirishga chaqirdi. Ushbu konferentsiya uchun tayyorlangan "Vaziyatni baholash"da shunday deyiladi: "Bugungi kunda katta yoshdagi aholining o'rtacha ta'limi (ilm olish) davomiyligini bor-yo'g'i bir yilga oshirish uzoq muddatli rejada iqtisodiy o'sishning 3,7% ko'payishiga, aholining jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning 6% oshishiga olib keladi, degan fikrdalar. Shunga qaramay, katta yoshdagilarning o'qishi va ilm olishi ijtimoiy sarf-xarajatlar yoki moliyaviy chiqimlar bilan bog'liq masalalar doirasidan juda uzoqdadir. Ular kelajakka ishonch uchun mablag'lar sarflanishini o'zida ifodalaydilar". Belen harakatlar dasturi doirasida, CONFINTEA VI ishtirokchilari o'z zimmlariga katta yoshdagilarning o'qishi va ilm olishini mablag' bilan ta'minlash bo'yicha quyidagi majburiyatlarni oldilar: "Katta yoshdagilarning ta'limi va ilm olishi yanada demokratik, tinchlikparvar, inklyuziv, yaratuvchan, sog'lom va barqaror jamiyatlarni tashkil qilish orqali ijtimoiy farovonliklarni ta'minlash uchun qimmatli vosita hisoblanadi. Katta moliyaviy investitsiyalar katta yoshlilarning sifatli ta'lim va ilm olishlari uchun juda muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun quyidagi majburiyatlarni olamiz:

a) ta'lim uchun yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning eng kamida 6% miqdorida mablag' ajratish va katta yoshdagilarning ta'limi va ilm olishlari uchun ajratiladigan mablag'larni ko'paytirish maqsadida chora-tadbirlar ko'rish bo'yicha CONFINTEA V tavsiyalarining amalga oshirilishi ishidagi rivojlanishni tezlashtirish;

b) katta yoshdagilarning ta'limi va ilm olishlari majmuaviy (kompleks) strategiya maqsadlariga erishish uchun barcha davlat idoralarida mavjud¹. CONFINTEA VI ochilishi 12 bo'lgan ta'lim resurslari va budjetlarini kengaytirish;

c) Yevropa Ittifoqining butun umr mobaynida ta'lim olish Dasturi doirasida nazarda tutilgan faoliyat yo'nalishlariga muvofiq savodxonlikni va katta yoshdagilar ta'limini joriy qilish sohasidagi tadbirlarning mablag' bilan ta'minlanishi uchun yangi transmilliy dasturlarni ishlab chiqish va mavjud tegishli dasturlardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

¹ <http://www.unesco.org/ru/confinteavi/> 01.12.2009

d) adolatlilik va iklyuzivlik tamoyillari uchun zarar yetkazilmagan holda, xususi sektor, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, jamiyatlar va alohida shaxslar kabi mablag' bilan ta'minlashning yangi manbalarini jalb qilish uchun rag'batlantiruvchi vositalarni yaratish;

e) ayollar, qishloq aholisi hamda jismoniy va aqliy nuqsonlarga ega shaxslar uchun butun umr mobaynida ta'lim olishni ta'minlash vositalarini investitsiya qilishga ustuvor diqqat-e'tibor qaratish".

Butun umr mobaynida ta'lim olish – bu ham kasbiy, ham shaxsiy sabablar bilan rag'batlantiriladigan yangi bilimlarning doimiy, ixtiyoriy izlanishlari kontseptsiyasidan iborat. Butun umr mobaynida ta'lim olish kasbiy rivojlanishga va insonning mehnat bozorida raqobatbardoshli bo'lishiga yordam beradi va ayni paytda, shaxsiy rivojlanishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, ushbu kontseptsiyaning mamlakat ko'lamida qabul qilinishi inson va intellektual kapitalning shakllanishiga va uning sifatiga samarali ta'sir ko'rsatadi, bu orqali iqtisodiyotning rivojlanishiga ko'maklashadi. Butun umr mobaynida ta'lim olish kontseptsiyasi odamlarning yoshidan va faoliyat sohasidan qat'iy nazar qamrab olinishini, ayni paytda ularga mutlaq har qanday o'quv ehtiyojlari va tanlovlarini (o'zlari afzal bilgan o'quv yo'nalishlarini) realizatsiya qilish va rivojlantirish uchun imkoniyatlar taqdim etilishini nazarda tutadi. So'nggi ikki o'n yillik ichida qabul qilingan deyarli barcha hujjatlarda butun umr mobaynida ta'lim olishning shaxs va jamiyat uchun dolzarbligi qayd etib o'tilgan.

2000 yil 30 dekabrda Yevropa komissiyasi tomonidan qabul qilingan Yevropa Ittifoqining butun umr mobaynida ta'lim olish bo'yicha bayonnomasi (memorandumi) butun umr mobaynida o'qib-o'rganishning muhimligi e'tirof etilishiga yorqin misol hisoblanadi. Unda Yevropa Ittifoqining yaqin o'n yillik uchun ta'lim sohasidagi siyosati belgilab berilgan va butun umr mobaynida ta'lim olishni rivojlantirishning har tomonlama strategiyasi ishlab chiqilgan. Yevropa komissiyasi va Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar Yevropa bandlik strategiyasi doirasidagi butun umr mobaynida ta'lim olish bilimlarni, malakalarni va kasbiy vakolatlarni yaxshilash maqsadida doimiy asosda amalga oshiriladigan har taraflama o'quv faoliyati sifatida belgiladilar. Ushbu asosiy tavsif Memorandumda ham kelgusi muhokamalar va harakatlar uchun asos fikr sifatida qo'llanilgan. Yangicha yondashuvning asosiy g'oyasi shundan iboratki, butun umr mobaynida o'qib-o'rganish endilikda ta'lim va qayta tayyorlash sohalaridan birigina bo'lmay, u ta'lim tizimining va unda insonning o'quv faoliyatining butun uzluksiz jarayoni davomidagi ishtirokining eng muhim tamoyiliga aylanib bormoqda.

Yevropa Ittifoqining butun umr mobaynida ta'lim olish bo'yicha Memorandumida shunday deyiladi: "Hozirgi kunga qadar, ta'lim sohasidagi siyosatni shakllantirishda faqat rasmiy ta'limgina hisobga olinardi, qolgan ikki ta'lim toifasiga deyarli hech qanday e'tibor qaratilmas edi. Uzluksiz ta'limning kontinuumi² norasmiy ta'lim va

² (lotincha continuum – holatlar, jarayonlarning uzluksizligi, o'zaro chambarchas bog'liqligi, ajralmasligi – tuzuvchilar izohi)

axborot olish uchun xizmat qiladigan (informal) ta'limni o'quv jarayonining teng huquqli ishtirokchilariga aylantiradi. Masalan, kompyuterlarning birinchi navbatda uyda foydalanish sohasini qamrab olganligi va dunyoni yakka holda anglashning kuchli resursiga aylanganligi axborot olish uchun xizmat qiladigan (informal) ta'limning ahamiyatini alohida qayd etadi va uning ulkan zaxira imkoniyatlari mavjudligini isbotlaydi. "Butun umr mobaynidagi ta'lim olish" atamasi uzluksiz ta'limning davriy omilini ajratib ko'rsatadi. Yaqinda **"umr kengligidagi ta'lim" (lifewide learning) atamasi** paydo bo'lib, u ta'lim jarayonining nafaqat doimiyligiga, balki uning rasmiy ta'lim, norasmiy ta'lim va axborot olish uchun xizmat qiladigan (informal) ta'lim kabi shakllar xilma-xilligiga ham e'tibor qaratadi. Bu bizga ta'lim bir vaqtning o'zida yoqimli va foydali bo'lishi mumkinligi hamda ta'lim muassasalarida ham, oilada, do'stlar davrasida, ish joyida yoki qiziqishlar bo'yicha turli klublarda ham yuz berishi mumkinligi to'g'risida eslatma beradi". **Mazkur Memorandumda butun umr mobaynida ta'lim olishni rivojlantirishning 6 ta eng muhim g'oyasi ilgari suriladi:**³

♣ 1-muhim g'oya: Barcha uchun yangi tayanch bilimlar va malakalar. Maqsad – axborot jamiyatiga bog'liqlik uchun zarur malakalarni o'zlashtirish va yangilash maqsadida ta'limdan umumiy uzluksiz foydalana olishlikni ta'minlash. Birinchi navbatda bu kompyuter savodxonlik, chet tillar, texnologik madaniyat, tadbirkorlik va ijtimoiy malakalardan, shuningdek o'qish, o'zgarishlarga moslanuvchanlik, axborotlar oqimida asosiy taalluqli yo'nalishni ajrata bilish qobiliyatlaridan iboratdir.

♣ 2-muhim g'oya: Inson resurslariga investitsiyalarni ko'paytirish. Maqsad – Yevropaning eng muhim boyligi – uning odamlari ustuvorligini ko'tarish uchun inson resurslariga investitsiyalarni sezilarli darajada oshirish.

♣ 3-muhim g'oya: O'qish-o'qitishning innovatsion uslubiyatlari. Maqsad – butun umr uzunligi va kengligida uzluksiz ta'lim tizimi uchun yangi metodologik ta'limni ishlab chiqish.

♣ 4-muhim g'oya: O'zlashtirilgan bilimni baholashning yangi tizimi. Maqsad – o'quv faoliyatini va uning natijalarini tushunishga va e'tirof etishga yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ayniqsa, norasmiy ta'lim va axborot olish uchun xizmat qiladigan (informal) ta'lim sohasida.

♣ 5-muhim g'oya: Murabbiylik va maslahatlashuv sohaslarini rivojlantirish. Maqsad – Yevropada ilm olish imkoniyatlari to'g'risidagi axborotlardan hamda zarur maslahatlar va tavsiyalardan har bir kishining butun umr mobaynida erkin bimalol foydalanishini ta'minlash.

♣ 6-muhim g'oya: Ta'limning uyga yaqinlashishi. Maqsad – o'quv va maslahat (konsultatsiya) punktlari tarmoqlari yordamida, shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda ilm olish imkoniyatlarini uyga yaqinlashtirish. Odamlar sifatli ma'lumot olish uchun o'zlarining qadrdon shahar va qishloqlarini tark

³ Yevropa komissiyasi tomonidan qabul qilingan Yevropa Ittifoqining butun umr mobaynida ta'lim olish bo'yicha bayonnomasi (memorandumi) 2000 yil 30 dekabr.

etmasliklari lozim. Ta'limni uyga yaqinlashtirish g'oyasi turar-joylarga bevosita yaqin joylarda: maktablarda, oliy o'quv yurtlarida, kutubxonalarda, klublarda, diniy markazlarda, dam olish markazlarida, ish joylarida ma'rifat markazlarini tashkil qilishni nazarda tutadi. Yevropadagi aksariyat ko'pchilik mamlakatlar Yevropa Ittifoqining butun umr mobaynida ta'lim olish bo'yicha Memorandumini qo'llab-quvvatladi va ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturlarni ishlab chiqish masalalarida unga rioya qilib kelmoqda.

Katta yoshdagilar ta'limini baholashga yo'naltirilgan tadqiqotlarda, mamlakatda Katta yoshdagilar ta'limi muassasalarining har xil turlari mavjudligi hamda ular tarmoqlarining butun hudud bo'yicha shaxobchalarga bo'linganligi (tarmoqlanganligi) muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Ushbu axborot u yoxud bu mamlakatda Katta yoshdagilar ta'limi holatini yanada aniq belgilash imkonini beradi. Katta yoshdagilar ta'limi markazlari xodimlari uchun bunday axborot boshqa Katta yoshdagilar ta'limi tashkilotlari bilan hamkorlikni rejalashtirishda yoki aksincha ular bilan yaxshiroq raqobatlashishda yordam berishi mumkin. Katta yoshdagilar ta'limi tashkilotlari davlat tashkilotlariga (odatda, rasmiy Katta yoshdagilar ta'limini nazarda tutadigan), nodavlat va jamoat tashkilotlariga (odatda, aksariyat hollarda, norasmiy Katta yoshlilar ta'limini nazarda tutadigan) bo'linadi. O'z faoliyatini bitta shaharda yoki bir necha shaharlarda, bitta mamlakatda (mamlakat darajasidagi kooperatsiyalar) yoki bir necha mamlakatlarda (xalqaro darajadagi kooperatsiyalar) amalga oshiruvchi Katta yoshdagilar ta'limi tashkilotlari mavjud. Davlat va mahalliy ta'lim muassasalarining faoliyati, odatda, Hukumat tomonidan tasdiqlanadigan taalluqli tur va ko'rinishdagi ta'lim muassasalari to'g'risidagi namunaviy nizomlar hamda ular asosida ishlab chiqiladigan ustavlar bilan tartibga solinadi. Nodavlat ta'lim muassasalari uchun bunday namunaviy nizomlar asos uchun qabul qilinishi mumkin. Katta yoshdagi aholi uchun ta'lim faoliyatini amalga oshirish huquqi taalluqli malakaga, tajribaga, shuningdek katta yoshdagilar ta'limi bo'yicha vazifalarni bajarish uchun zarur resurslarga ega tashkilotlarga va xususiy shaxslarga taqdim qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi (o'quv qo'llamma). - T., 2020 y.
2. Hoshimov K, Nishonova S. Pedagogikatarixi (darslik). - T., 2005 y.287-297-b.
Nurumbekova, Y. (2021). TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO PROFESSIONAL EDUCATIVE ACTIVITY ON THE BASEMENT. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 66-74.
3. Nurumbekova, Y., & Gulistan, U. Z. B. E. K. I. S. T. A. N. (2019). A TEACHER-EDUCATOR EDUCATIONAL INITIATIVE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*.
4. Nurumbekova, Y. (2019). Importance of Technologizing Teacher-Mentor's Professional Activity. *Eastern European Scientific Journal*, (1).

5. Nurumbekova, Y. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI. *Архив научных исследований*, 2(1).
6. Anarmatovna, N. Y. (2023). КОУЧИНГДА СУҲБАТ МЕТОДИДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ. *PEDAGOG*, 6(2), 173-175.
7. Anarmatovna, N. Y., & Ummatkulovna, X. Z. (2022). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL-SPIRITUAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1832-1838.